

**AXBOROT XAVFSIZLIGIGA TAHDIDLAR***ANDIJON QISHLOQ XO'JALIGI VA**AGROTEXNOLOGIYALAR INSTITUTI**AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA MATEMETIKA KAFEDRASI**KATTA O'QITUVCHISI ABDURAXMONOV ODILJON**MEVA SAVZAVOTCHILIK VA UZUMCHILIK YO'NALISHI**I-BOSQICH TALABASI****YOQUBJONOVA SURAYYO ABDUJALIL QIZI***

***Kalit so'zlar:*** *Axborot xavfsizligi, kiberxavfsizlik, kiberhujumlar, ma'lumotlar xavfsizligi, tahdidlar, zararli dasturlar, tarmoq xavfsizligi.*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada zamonaviy texnologiyalar rivojlanishi bilan yuzaga kelayotgan axborot xavfsizligi tahdidlari ko'rib chiqiladi. Tahdidlarning asosiy turlari, ularning yuzaga kelish sabablari va oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar muhokama qilinadi. Axborot xavfsizligi nafaqat texnologik, balki ijtimoiy muammo ekanligi tahlil qilinib, samarali himoya strategiyalari taklif qilinadi.*

**Kirish**

Axborot texnologiyalari hayotimizning ajralmas qismiga aylandi. Ular yordamida axborotning saqlanishi, almashinuvi va qayta ishlanishi amalga oshiriladi. Shu bilan birga, axborot xavfsizligi masalalari ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Statistika ma'lumotlariga ko'ra, har yili kiberxavfsizlikka oid hujumlar soni ortib bormoqda. Bunday tahdidlar nafaqat shaxsiy foydalanuvchilarga, balki korxonalar va davlat tashkilotlariga ham jiddiy zarar yetkazmoqda. Ushbu maqolada axborot xavfsizligi tahdidlari va ularni oldini olish choralari ko'rib chiqiladi.

**Asosiy qism:**

**Axborot xavfsizligi tahdidlarining asosiy turlari quydagilardan iborat**

№	Nomi	Ma'lumot
1	<b>Zararli dasturlar .(Malware)</b>	- bu viruslar, troyanlar va ransomware kabi dasturlar bo'lib, ular foydalanuvchilarning shaxsiy ma'lumotlarini o'g'irlash yoki tizimlarni ishdan chiqarishga mo'ljallangan.
2	<b>Fishing (Phishing)</b>	foydalanuvchilardan maxfiy ma'lumotlarni o'g'irlash uchun zararli elektron pochta va soxta veb-saytlardan foydalanish usuli.
3	<b>Hakerlik hujumlari.</b>	Hakerlar ko'pincha kompaniyalarning ma'lumotlar bazalariga hujum qilib, ma'lumotlarni noqonuniy tarzda o'zlashtiradi. Bu turdagi hujumlar moliyaviy va reputatsion zarar yetkazadi.
4	<b>Tarmoq tahdidlari.</b>	Denial-of-Service (DoS) hujumlari orqali tarmoqlarning ishlashiga to'sqinlik qilinadi, botnetlar esa global miqyosda axborot oqimlarini buzadi.

**2. Tahdidlarning yuzaga kelish sabablarga quydagilarni misol qilishimiz mumkin.**

**Texnologik himoyaning sustligi** – Ko'plab tashkilotlar zamonaviy xavfsizlik texnologiyalaridan foydalanmaydi, bu esa ularni himoyasiz holga keltiradi.

**Foydalanuvchilarning bilimsizligi** –Oddiy foydalanuvchilar axborot xavfsizligi qoidalarini bilmasligi sababli fishing va zararli dasturlar qurboniga aylanadi.

**Anonimlik** –Internetdagi anonimlik kiberjinoyatchilarni jazodan qutqarib qolish imkonini beradi.

### **3. Tahdidlarning oldini olish strategiyalari**



### Xavfsizlik siyosati:

- Tashkilotlarda maxsus xavfsizlik qoidalari va protokollari joriy etilishi kerak.



### Shifrlash va xavfsizlik devorlari.

Ma'lumotlarni shifrlash texnologiyalari va xavfsizlik devorlaridan foydalanish tahdidlarni kamaytiradi.



### Xodimlar va foydalanuvchilarni o'qitish.

- Foydalanuvchilarning bilim darajasini oshirish kiberxavfsizlikka tahdidlarni kamaytiradi.

### Xulosa

Axborot xavfsizligi zamonaviy jamiyatning eng muhim masalalaridan biridir. Axborot tizimlarining samarali ishlashi nafaqat texnik, balki ijtimoiy choralarni ko'rishni ham talab qiladi. Ushbu maqolada keltirilgan tavsiyalar axborot xavfsizligini mustahkamlashga va tahdidlarni minimallashtirishga yordam beradi.

### FOYDALANGAN ADABIYOTLAR.

1. Usmanova Mavluda Soyibjon qizi, Karimov Otabek Raximovich, Mamatov Shohruxbek Muhammadjon o'g'li "OLIIY TA'LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYARDAN FOYDALANISHNING ILMIY METODIK ASOSLARI" "XALQ TA'LIMI XODIMLARINI "UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISH"GA MOSLASHISH JARAYONINING IJTIMOIIY-PEDAGOGIK MUAMMOLARI" MAVZUSIDAGI ILMIYAMALIY ANJUMANI 2022-yil 31-oktyabr.
2. Usmonova Mavludaxon Soyibjon qizi "TA'LIM MUASSASALARIDA ELEKTRON O'QUV ADABIYOTLARIDAN FOYDALANISH" INTEGRATSIYALASHGAN TA'LIM VA TADQIQOTLAR JURNALI JOURNAL OF INTEGRATED EDUCATION AND RESEARCH MAY 2023

3. Усмонова Мавлудахон Сойибжон қизи, Каримов Отабек Рахимович, Маматов Шоҳрухбек Муҳаммаджон ўгли “ИҚТИСОДИЁТДА РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ” «Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot» nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya 2022
4. Usmonova Mavludahon Soyibjon qizi “"Library of Programming Languages Python"Easy Delivery Methods Using Modern Information Communication Tools” European Journal of Pedagogical Initiatives and Educational Practices ISSN (E): 2938-3625 Volume 1, Issue 1, April, 2023
5. Usmonova Mavludakhon “Operating Principles and Applications of Blockchain Technology” European Journal of Pedagogical Initiatives and Educational Practices ISSN (E): 2938-3625 Volume 1, Issue 9, December, 2023
6. M.S. Usmonova.”Multimedia texnologiyalaridan oliy ta'limda foydalanish” “ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИДА РЕСУРС ТЕЖОВЧИ ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШНИНИГ ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АСОСЛАРИ” МАВЗУСИДАГИ ХАЛҚАРО ИЛМИЙ ВА ИЛМИЙ-ТЕХНИК АНЖУМАН АНДИЖОН 2023